

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING FAOILYATLAR JARAYONIDA IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARINI ANIQLASH ASOSLARI.

Abduxalimova Durdona Ilhom qizi

Denov Tadbirkorlik va Pedagogika Instituti "Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Maktabgacha ta'lim)" mutaxasis talabasi tel +998 (91) 720 40 83 E-mail: abduxalimovadurdona123@gmail.com

Annotatsiya: *Yosh bolalarning ta'lim olishi ayniqsa maktabgacha taqsim olaydigan bolalarning ta'lim darajasi va berilayotgan va izlanayotgan hohishga ko'ra bolalarga ta'lim darajasi aniqlanadi. Ayniqsa zamonamizda 4-5 yoshlar oraligi'dagi bolalarning ta'lim olish sifatini yaxshilash va ularning olayotgan ko'nikmalaridan ularning ijodiy qobiliyatlarini rivijnantira oladimi yoki yo'qmi ushbu maqola orqali asoslab ketilgan.*

Ushbu tadqiqotda maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning nazariy tamoyillari va metodik yondashuvlari ko'rib chiqiladi. Ijodiy faoliyatni rag'batlantirish, bolalarning tasavvurini rivojlantirish, ularning ko'nikmalarini shakllantirish hamda muammolarni hal etishdagi faoliyatlarini qo'llab-quvvatlash ta'lim jarayonining asosiy elementlaridan biridir. Tadqiqotda, shuningdek, bolalarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish uchun maktabgacha ta'lim muassasalarida qo'llaniladigan metodlar, o'yinlar, san'at va amaliy faoliyatlarning o'rni tahlil etiladi.

Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning, xususan 4-5 yoshli davrdagi ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslari yoritilgan.

Maqolada o'yin, rasm chizish, loyhalash va nutqiy faoliyat orqali ijodiylikni oshirish yo'llari, shuningdek, pedagogik jarayonda yuzaga keladigan to'siqlar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: *maktabgacha ta'lim, bolalar ijodiy qobiliyatlari, ijodiy rivojlanish, pedagogik yondashuvlar, o'yin va ijodiy faoliyat, ijodiy salohiyat, bolalar ta'limi, shaxsiy rivojlanish, ta'lim metodlari, ota-onalar bilan hamkorlik, psixologik rivojlanish, tasavvur va fantaziya, ijodiy faollik, bolalar psixologiyasi, rivojlanish jarayoni, ta'lim jarayoni.*

Maktabgacha yosh davri — inson shaxsining asosi shakllanadigan, intellektual va ijodiy salohiyatning "portlash" davridir. Ayniqsa, 4-5 yoshli bolalarda tasavvur olami kengayib, atrof-muhitni anglashga bo'lgan qiziqish ortadi. Bugungi kunda ta'lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri nafaqat bilim berish, balki bolalarda kreativ fikrlashni (ijodiy yondashuvni) uyg'otishdir.

Ijodkorlik bu nafaqat san'at asari yaratish, balki har qanday muammoga o'ziga xos yechim topish qobiliyatidir. 4-5 yoshli o'rta guruh bolalarida bu qobiliyat ularning sensor va motor rivojlanishi bilan chambarchas bog'liqdir.

Maktabgacha ta'lim tizimida bolalar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish jarayoni ko'plab pedagogik yondashuvlar va metodlarga asoslanadi. Pedagoglar, o'qitish jarayonida bolalarning ijodiy tafakkurini rag'batlantirish uchun turli o'yinlar, san'at va amaliy faoliyatlar orqali bolalar bilan ishlashni amalga oshiradilar. Ushbu jarayonni

samarali tashkil etish, bolalarningshaxsiyxususiyatlari va ijtimoiy ehtiyojlarini hisobga olishi zarur deb hisoblanadi.²⁸

Psixologiyada ijodiylik birinchi marta 1950 yilda ilmiy o'rganilgan. Mashhur amerikalikpsixolog Dj.Gilford o'sha yili Amerika psixologlar assotsiatsiyasining kongressida ijodiy tafakkur va ijodiy jarayon haqida ma'ruza qilib bu sohaga olimlarning diqqatini tortdi.

Dj.Gilfordbu sohada chuqur izlanishlar olib borib, 1967 yilda kreativ tafakkurni shakllantiruvchivaaniqlovchi testlar dastasini ishlab chiqdi. Ijodiy tafakkur bu kishilardagi aqliy faoliyatning asosiy xarakteristikasi bo'lib, tafakkurning individualligini xarakterlaydi. Dj.Gilford farazicha intellekt tuzilishi modeliningtahlilibujarayonni taminlaydi.²⁹

Bolalarning ijodkorligini belgilovchi yana bir tushuncha bu tasavvurdir. Bu hodisa ajoyib sovet psixologi L.S. Vygotskiyning asarlarida keng ifodalangan. U bolaning tasavvuriga alohida e'tibor berib, kattalar tasavvuri bilan bolalar tasavvuri o'rtasida ma'lum chegarachizgan. Vygotskiyning ta'kidlashicha, bu aqliy xususiyat kattalarda eng to'liq namoyon bo'ladi, shuninguchun bolalar tasavvurni rivojlantirish uchun barcha shart-sharoitlar bilan ta'minlanishi kerak-bu insonning normal rivojlanishining yagona yo'li.³⁰

Respublikamizda ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarini san'at orqali ijodkorligini shakllantirish metodikasi M.Abdukarimov, M.A Abdullayeva, Sh.Sh.Abdullayeva, A.Baxriyev,A.Golitova, R.Qodirov, B.Kodirov, A.Radjabova, M.Mirzayeva, H.Nurmatov, J.Rasulboyev,R.I.Sunnatova, F.Xalilov, O.Xoliqov, Sh.Xalilova, G.B.Shoumarov, Sh.E.Qurbonov, M.Quronov,Sh.Q.Mardonov, G. X. Ibragimova, D.Yu.Ruziyev, Sh.Sh.Olimovlar tomonidan tadqiqetilgan.[3]Xorijiy davlatlar olimlari S.K.Andrews, M.Almodovar, L.Curtis, L.Pernilla, Pak ChonXoy, I XeGu, I Son Chxon, Xan Myon Xining tadqiqotlarida san'atning tarbiyaviy ahamiyati, ularniestetik tarbiyalash masalalari ko'rib chiqilgan.³¹

METODOLOGIYASI

Maktabgacha yosh intensiv psixologik yetuklik bosqichi bo'lgan ijodkorlikni rivojlantirish uchun eng qulay davr. Aynan shu davrda ko'p sohalarda progressiv o'zgarishlar ro'yberadi, aqliyjarayonlar (diqqat, xotira, tafakkur, nutq, tasavvur) takomillashadi, shaxsiy fazilatlar rivojlanadi,ular asosida qobiliyat, moyillik shakllanadi. Ota-onalar o'z farzandlarini ijodkor shaxs bo'lib voyaga etishini xohlaydi. Shu sababli yoshlikdanoq ularning ijodiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga e'tibor qaratadi. Binobarin,"barcha bolalar istisnosiz potentsial ijodkorlardir. Badiiy ijodkorlik va tasviriy san'atni o'rganish bo'yicha mashg'ulotlar har bir bolada yashiringan ijodiy qobiliyatlarni "uyg'otish"ga, ijodiyloqatni ro'yobga chiqarishga yordam berishga harakat qiladi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning deyarli barchasi turli harakatlar –rasmchizish, qo'shiq aytish, raqsga tushish, jismoniy faollikni ifodalovchi

²⁸ Shahnoza, B. (2024). MAK'TABGACHA TA'LIM TIZIMIDAINNOVATSION YONDASHUVNING USLUBIY ASOSLARI VA PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI. University Research Base, 164-167.

²⁹ Guilford, J.P. (1967). The Nature of Human Intelligence. McGraw-Hill. Piaget, J. (1952). The Origins of Intelligence in Children.

³⁰ Abdukarimov, M., Abdullayeva, M.A., Abdullayeva, Sh.Sh. (2005). San'at vapedagogika: Bolalar ijodkorligini rivojlantirish. Tashkent.

³¹ Andrews, S.K., Almodovar, M., Curtis, L. (2010). The Role of Art in Early Childhood Education. International Journal of Art Education.

harakatlarni tashkil qilish orqali o'z ijodiy qobiliyatlarini u yoki bu darajada namoyon qiladi. Bu yoshdagi bolalarning ijodkorligi ulardagi erkinlik, faollik, o'z xohish-istaklari, xatti-harakatlarini cheklamaslik bilan bog'liq. Qolaversa, atrof-borliqni bilishga bo'lgan intilish ulardagi qiziquvchanlikni rivojlantiradi. Kattalarga taqliq qilish odatlari esa san'atning turli janrlari bo'yicha kattalar yoki tengdoshlarining harakatlarini o'zlashtirish uchun imkon beradi.

Qiziquvchanlik asta-sekin maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda san'atning turli sohalari bo'yicha qobiliyatni rivojlantirishga yordam beradi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning san'atning turli sohalariga bo'lgan qiziquvchanliklari hali barqaror sifat emas. Izchil ravishda bu qobiliyatni rivojlantirib bormaslik esa uning pasayishiga olib keladi. Pedagogik yondashuv bolalarning ijodiy qobiliyatlarini tizimli ravishda, izchil, uzluksiz rivojlantirib borishni taqozo qiladi. Qobiliyatli bolalar bilan ishlashning an'anaviy ta'lim jarayonidan farqli tomoni bu pedagogic faoliyatning maxsus o'quv va tarbiyaviy ishlar dasturlari asosida tashkil etilishi sanaladi. Maxsus dasturlar mazmunan iqtidorli bolalarni o'qitishning o'ziga xosligini ifoda etadi. Bu kabi o'quv va tarbiyaviy ishlar dasturlarini yaratishda ma'lumtamoyillar asosida ishyuritiladi.

Tarbiyachilarning to'g'ri yondashishi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qobiliyat bolalarni tarbiyalashda muayyan samaralarga erishishni kafolatlaydi. 1998 yildan boshlab respublikada tashhis markazlarining faoliyat olib bormoqda. O'z tarkibiga psixolog, pedagog, fiziolog, tibbiyot xodimlari kabi mutaxassislar jalb etilgan markaz olti-yetti yoshli bolalarning maktab ta'limiga tayyorgarlik darajasini aniqlash vazifasini bajarmoqda. Bizning nazarimizda, ularning faoliyati aynan bolalarning iqtidori darajasini aniqlash, ularni layoqati, qobiliyati va iqtidori darajasiga ko'ra turli yo'nalishlarda faoliyat yurituvchi ta'lim muassasalarga jalb etishdan iborat bo'lishi lozim. Markaz faoliyati yordamida iqtidorli bolalarni o'z vaqtida va to'g'ri aniqlash, ularning iqtidorini yanada rivojlantirish uchun qulay pedagogik sharoitlarni yaratish, ularni kasbga yo'naltirish maqsadga muvofiqdir.

4-5 YOSHLI BOLALARNING IJODIY RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

- 4-5 yoshli bolalarda ijodkorlikning o'ziga xos bosqichlari kuzatiladi:
- Reproaktivlikdan kreativlikka o'tish: Bola endi faqat kattalarni takrorlamaydi, balki o'zining kichik "yangiliklari"ni qo'sha boshlaydi.
- Boy tasavvur: Bu yoshda fantastika va real hayot o'rtasidagi chegara juda nozik bo'ladi.
- Hissiy boylik: Har bir ijodiy mahsulot bola uchun katta hissiy ahamiyatga ega.

IJODIY QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

O'yin faoliyati — asosiy poydevor. O'yin 4-5 yoshli bolaning yetakchi faoliyatidir. Ijodkorlikni oshirish uchun syujetli-rolli o'yinlardan foydalanish samarali. Masalan, "Kasalxona" yoki "Do'kon" o'yinlarida bola kutilmagan vaziyatlardan chiqish yo'lini qidiradi. Rollar almashishi jarayonida bola boshqa insonning hissiyotlarini tushunishni va vaziyatga boshqacha nuqtayi nazardan qarashni o'rganadi.

Badiiy-tasviriy faoliyat an'anaviy bo'lmagan rasm chizish usullari bolani qolipdan chiqaradi:

- Barmoqlar bilan chizish: Sensorika va erkinlikni rivojlantiradi.
- Blotografiya (dog'lardan shakl yasash): Tasavvurni ishga soladi.
- Tabiiy materiallar bilan ishlash: Barglar, toshlar va qum orqali kompozitsiya yaratish.

Konstruktorlik va loyihalash

Lego yoki oddiy yog'och shakllar bilan ishlash bolada fazoviy tafakkurni shakllantiradi. 4-5 yoshda bola nafaqat ko'rgan narsasini quradi, balki o'z xayolidagi ob'ektlarni modellashtira boshlaydi. Bu jarayonda xatolarni tuzatish va yangi shakllarni izlash ijodiy fikrlashning eng yuqori nuqtasidir.

RIVOJLANISH YO'LLARIDA DUCH KELADIGAN VAZIYATLAR TAHLILI

"Andoza (Shablon) muammosi" Vaziyat: Ko'pincha tarbiyachilar bolaga "Olma faqat qizil bo'ladi" yoki "Uyning tomi albatta uchburchak bo'lishi kerak" deb qat'iy talab qo'yadilar.

Tahlil: Bu bolaning individual tasavvurini o'ldiradi va uni faqat tayyor qoliplarda ishlashga o'rgatadi.

Yechim: Bolaga erkinlik berish, "Sening olmang nima uchun ko'k rangda? Balki u sehrlidir?" deb savol berish orqali uning mantiqiy ijodkorligini qo'llash lozim.

Muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqish

Vaziyat: Bola rasm chizishni boshlaydi, lekin o'zi kutgan natija chiqmagach, "Menda o'xshamaydi" deb voz kechadi.

Tahlil: 4-5 yoshda bolalar o'z mehnatiga nisbatan tanqidiy qaray boshlaydilar. Bu bosqichda motivatsiya yo'qolishi ijodiy qobiliyatlarning to'xtab qolishiga olib kelishi mumkin.

Yechim: Jarayonni natijadan ustun qo'yish. "Sening chizig'ing juda qiziqarli chiqibdi, kel uni birgalikda daryoga aylantiramiz" kabi qo'llab-quvvatlash usullaridan foydalanish.

Muhitning yetishmasligi

Vaziyat: Bolada ijod qilish uchun yetarli ashyolar yo'q yoki ular faqat dars paytida beriladi.

Tahlil: Ijodkorlik vaqt bilan cheklanmasligi kerak. Bola o'zida g'oya paydo bo'lganda uni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lishi zarur.

Yechim: Guruh xonasida "Ijodiyot burchagi"ni tashkil etish, u yerda doimiy ravishda qog'oz, qalam va chiqindi materiallar (karton qutilar, mato bo'laklari) bo'lishini ta'minlash.

PEDAGOGIK TAVSIYALAR VA METODLAR

1. "Aqliy hujum" metodi: Bolalarga muammoli savollar berish: "Agar dunyoda hamma narsa shirinlikdan bo'lsa nima bo'lardi?", "Agar yomg'ir o'rniga konfet yog'sa-chi?".

2. TRIZ o'yinlari: Bolaga bitta buyumning bir necha xil vazifasini topishni o'rgatish. Masalan: "Qalamdan yana nima sifatida foydalanish mumkin?" (Ko'rsatkich, soch turmagi uchun asbob, sehrli tayoqcha).

3. Ertak terapiyasi: Mashhur ertaklarning yakunini o'zgartirish yoki yangi qahramonlar kiritishni taklif qilish.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak 4-5 yoshli bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish — bu shunchaki ularga rasm chizishni o'rgatish emas, balki ularni dunyoga ochiq va keng nazar bilan qarashga o'rgatishdir.

Pedagogning asosiy vazifasi — boladagi "ijodiy uchqun"ni so'ndirmaslik, ularga xato qilishdan qo'rqmaslikni va har bir narsada yangilik ko'ra olishni o'rgatishdir. Erkinlik, qo'llab-quvvatlash va boyitilgan muhit ushbu yoshdagi bolalar uchun eng yaxshi tarbiya vositasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Shahnoza, B. (2024). MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDAINNOVATSION YONDASHUVNING USLUBIY ASOSLARI VA PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI. University Research Base, 164-167.

2. Vygotsky, L.S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.

3. Abdukarimov, M., Abdullayeva, M.A., Abdullayeva, Sh.Sh. (2005). San'at vapedagogika: Bolalar ijodkorligini rivojlantirish. Tashkent. 4. Andrews, S.K., Almodovar, M., Curtis, L. (2010). The Role of Art in Early Childhood Education. International Journal of Art Education.